



**Ipak tolasini yetishtirish pillachilikda yurtimizda qilinayotgan
islohotlar kamchiliklar va yutuqlar**

Xojimatov Saidjalolxon

Fargona politexnika instituti Tabiiy tolalar magistranti

Valiyev Gulom Nabidjonovich

Kafedra profeesori texnika fanlari doktori

Annotatsiya: Pillachilik sanoatida olib borilayotgan ishlar yutuqlar kamchiliklar va islohatlar. Sifatli ipak tolasini ishlab chiqarish. Shu sohada olib borilayotgan ishlar.

Kalit so`zlar: ipak, pilla, tola, ipak qurti, pillachilik sanoati.

Аннотация: Проведенная работа в коконной отрасли, достижения, недостатки и реформы. Производство качественного шелкового волокна. Работайте в этой сфере.

Ключевые слова: шелк, кокон, волокно, тутовый шелкопряд, коконовая промышленность.

Abstract: The work carried out in the cocooning industry, achievements, shortcomings and reforms. Production of quality silk fiber. Work in this field

Key words: silk, cocoon, fiber, silk worm, cocooning industry

Asosiy malumotlar

Ipakchilik O'zbekiston dehqonchiligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, to'qimachilik sanoatini xomashyo bilan taminlaydi. Xalq xo'jaligi va aholining turmushi yaxshilangani sari ipakdan tikilgan turli-tuman kiyimlarga bo'lgan talab yil sayin ortib borinoqda. Ipak qurti pillasidan xom ipak olinib, undan esa tabiiy shoyi to'qiladi. Tabiiy



ipakdan xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalaniladi. Tabiiy ipak pishiqligi, cho'ziluvchanligi, issiqqa chidamliligi, ko'rkamligi, yengilligi va gigiyena talablariga javob bera olishi jihatidan ko'pgina gazlamalardan ustun turadi.

Respublikamizda pilla hosildorligini oshirishning istiqbolli yo'llaridan biri sanoat miqyosida ipak qurtini takroriy boqish amaliyotini joriy etish hisoblanadi. Ammo, bugungi kungacha tut ipak qurtining ozuqa bazasidan ratsional foydalanishning tizimi yo'lga qo'yilmagan. Shuning uchun bugungi kunda tut ipak qurtining mahalliy navlarini takroriy parvarishlashni amalga oshirish uchun uning ozuqa bazasini moslashtirish tizimini ishlab chiqish o'ta muhim masala hisoblanadi. Shularni hisobga olgan holda O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot institutida tut ipak qurtini takroriy boqish amaliyoti va ularni mavsumiy ozuqa bilan ta'minlash tizimini yaratish bo'yicha keng miqyosli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Respublikamizda pillachilik sohasini rivojlantirishga respublikamiz rahbariyati va xukumati katta e'tibor qaratmoqda. Bular albatta, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17yanvar kungi PQ-4567-sonli "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida innovatsion g'oyalar, ilmiy ishlanmalar va ilm-fan yutuqlarini keng joriy etish orqali pillachilik tarmog'i ozuqa bazasini ko'paytirish, eksportga mo'ljallangan maxsulotlar ishlab chiqarish xajmini oshirish, shuningdek, pillachilik tarmog'ida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va 31.07.2019 dagi "Pillachilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4411-sonli Qarorlarida ham o'z aksini topgan.

Bundan tashqari Keyingi yillarda ilg'or pillakorlarimiz qurt boqish sur'atini yanada tezlashtirish borasida g'oyat katta amaliy natijalarga erishdilar. Ular qurt boqish davrini 30-32 kun o'rniga 21-23 kunga qisqartirishga muvaffaq bo'ldilar. Bu ishlarni qilishda pillakorlarimiz tashqi muhit tasirini organishmoqda. Tashqi muhitning ta'siri bilan har bir organizm o'zgaradi, ayni vaqtda bu organizm o'z atrofidagi muhitni ham o'zgartiradi.



Biologiya fanidagi izlanishlar ana shu o‘zaro munosabatlarni aniq tushunib olish natijasida, organizmlarning tabiatini o‘zgartish yo‘llarini ochib berdi, ongli va planlashtirilgan ravishda yangi navlar chiqarish metodlarini yaratilmoqda. Muhit omillari qatorida biz aerologik xarakterdagi omillarni ajratamiz. Bu omillarga: havo harorati va namligi, havo almashinishi hamda turli formadagi nurli energiya ta’siri kiradi. Eng muhim omillardan biri oziq-ovqat, ya’ni qurtga beriladigan bargning miqdori va sifati hisoblanadi. Bu omil qurtlarni joylashtirish qalinligiga ham bog‘liq. Tirik organizmlar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabat ham muhit omillariga kiradi. Bu omillar

ichida eng muhimi, mikroorganizmlardan iborat. Ammo odamning ipak qurtiga ta’sir etishini bu omillarga kiritish to‘g‘ri emas, chunki odam tabiatni ongli ravishda o‘zgartiradi va o‘z ishida oliy sotsial qonunlarga bo‘ysunadi. Shular bilan bir qatorda bizning yana bir kamchiligimiz shundaki Ipak qurti tuxumini inkubatsiya qilish va qurt tarqatish xajmlarini pilla o‘rash jarayoniga ta’sirini o‘rganib chiqishimiz lozim. Pilla o‘rash jarayoniga ta’sir etadigan tashqi muhit omillarini juda ko‘p olimlar har tomonlama o‘rganib, uning sabablari va oldini olish choralari bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini bildirgan, hamda tegishli tavsiyalar bergan. Ammo, pilla o‘rash jarayoniga ipak qurti tuxumlarini inkubatsiya qilishdagi va jonlangan qurtlarni zvenolarga tarqatish hajmlari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan shart-sharoitlarning ta’siri deyarli o‘rganilmagan. Tajribalarimizning bir qismini shu yo‘nalishga qaratib qiziqarli ma’lumotlar to‘plashga erishdik. Ma’lumotlarni taxlil qilib ko‘rilsa, ipak qurti urug‘larini fermer xo‘jaliklari sharoitidan kelib chiqib bitta inkubatoriyada o‘rtacha 60-80 quti urug‘ jonlantirilib o‘z vaqtida tarqatilsa, ular beshinchi yosh oxirida ozuqaga to‘ygach tezda, bir tekis dastaga chiqib 2,5 kun davomida pilla o‘rab bo‘ladi. Bunda qurtlar birinchi kuni 50%, ikkinchi kuni 40-45%, va uchinchi kuni 10-15% pilla o‘ragan bo‘lsa, bitta inkubatoriyada 150 quti urug‘ jonlantirilib, zvenolarga tarqatilgach pilla o‘rashga biroz kechikib kelib, pilla o‘rash 4-kun davom etishi kuzatildi. Shundan birinchi kuni 40%, ikkinchi kuni 30-35%, uchinchi kuni 5-10% va to‘rtinchi kuni 5% pilla o‘radi. demak inkubatoriyada jonlantirilgan urug‘lar miqdori 100 qutidan ortiq



bo'lsa pilla o'rash muddati ham cho'zilib boradi. Bu esa pilla o'rashda yoppasiga dasta qo'yish va pillalarni bir kunda terib olishning iloji bo'lmaydi. Natijada oldin yetilgan pillalar namligini yo'qotib hosil og'irligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 480 ming qutidan ortiq ipak qurti parvarishlanib kelinmoqda, ushbu hajmning taxminan 220 ming qutisi respublikamizda tayyorlansa, 260 ming qutisi horijdan import qilinadi. Kelajakda O'zbekiston ipakchiligini yanada rivojlantirishda tut ipak qurti urug'laridan mahalliy sanoat homashyosi pilla yetishtirish uchun imkoniyat yaratiladi. Buning natijasida yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqariladi va tayyor ipak mahsulotlari asosan Yaqin Sharq, Afrika, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Xindiston va Arab mamlakatlariga eksport qilinadi.

Hulosa

Kelajakda O'zbekiston ipakchiligini yanada rivojlantirish va iqtisodiy jihatdan mamlakatimizni dunyo bo'yicha oldingi o'rinlarga olib chiqishga asos bo'ladi. Tut plantatsiyalaridan samarali foydalanish tizimini joriy etilishi natijasida tut ipak qurtining takroriy boquv usulini qo'llash bilan pilla xajmini oshirish, pilladan jahon va ichki bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan ipak xomashyosini olish va pilla sifatining oshirilishi hisobiga qo'shimcha daromad olinib, ish o'rinlarini ko'paytirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 31 июль кунги “Пиллачилик тармоғида чуқур қайта ишлашни ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4411-сонли Қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 17 январь кунги “Пиллачилик тармоғида ипак курти озуқа базасини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4567-сонли Қарори



3. Авазов К.Р. - Қобикни технологик хусусиятлирини сақлашда пиллаларга инфрақизил нур билан дастлабки ишлов бериш/т.ф.д..... дисс., Тошкент, ТТЕСИ, 2021, 200 с.

4. Алимова Х.А. - Развитие техники и технологии производства натурального шелка в Среднеазиатских Республиках// Ташкент, РНТС “Шелк”, 1991, № 3, стр.23-26.

5. Мухамадрасулов Ш.Х. – Хом ипак ишлаб чиқаришда сифат ва микдор кўрсаткичларини ошириш/ф.т.ф.д. дисс., Наманган, НамМТИ, 2020, 112 с.

6. Умаров Ш.Р. ва бошқ. – Такрорий курт боқишнинг самарадорлигини ошириш омиллари. Монография/Ш.Р.Умаров, У.Н.Насриллаев, С.С.Леженко// Тошкент, ЎзФА, “Фан” нашр., 2009, 98 с. Рахимов А.Ю. – Сифатли хом ипак ишлаб чиқаришнинг

7. Валиев Г. Н., Орипов Ж. И., Валиев Н. Г., М. Турдиев М., Хомидов В.О. Технология снижения дефектности намотки шелковых нитей на крутильных машинах // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоёмкие технологии и материалы (SMARTEX – 2021): сборник материалов XXIV международного научно-практического форума (Иваново, 12-14 октября 2021 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2021. – 370 с., с. 12-16.

8. Валиев Г.Н. Аналитическая зависимость распределения давления крестовой намотки на её основание вдоль оси паковки при сложных формах намотки и методика её определения // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности. – 2018. - № 3. – с. 106-113 (SCOPUS, CAS(pt)).

9. Valiev G. N., Khomidov V. O. Study of the Shape of a Balloon of Natural Silk Thread When Winding From a Fixed Packing // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). Vol. 7, Issue 8, August - 2020. – 14733-14737pp.



10. Валиев Г. Н., Хомидов В. О., Турдиев М. Способ определения технологичности нитенатяжных приборов текстильных машин // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоёмкие технологии и материалы (SMARTEX – 2018): сборник материалов XXI международного научно-практического форума (Иваново, 26-28 сентября 2018 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2018. – Часть 1, 303 с., с. 185-188.

11. Валиев Г. Н., Хомидов В. О., Турдиев М. Особенности формы баллона нити натурального шёлка при сматывании с неподвижной паковки // Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоёмкие технологии и материалы (SMARTEX – 2020): сборник материалов XXIII международного научно-практического форума (Иваново, 20-23 октября 2020 г.). – Иваново: ИВГПУ, 2020. – 445 с., с. 24-29.

12. N.Ahmedov. A.Abdurahmonov. Pillalarni tayyorlash va dastlabki ishlov berish

13. N. A. Ahmedov. U.T. Daniyarov. Pillachilikni rivojlantirishda yangi texnologiyalar
